# 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Surxondaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 33 655,0 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar - 33 151,5 mlrd. so‘mni (103,8 %), o‘rmon xo‘jaligi - 346,0 mlrd. so‘mni (102,1 %), baliqchilik xo‘jaligi - 157,5 mlrd. so‘mni (104,8 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Surxondaryo viloyatining ulushi 7,9 % ni tashkil etdi.




**33 655,0** — Surxondaryo viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01 — **33 151,5** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02 — **346,0** — O‘rmon xo‘jaligi

03 — **157,5** — Baliqchilik xo‘jaligi

# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2023-yilning yanvar-dekabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 98,5 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 1,0 % i - o'rmon xo'jaligi, 0,5 % i - baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (5 055 mlrd. so'm) va Sherobod tumanlarida (3 829 mlrd. so'm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bandixon tumanlari (1 023 mlrd. so'm) va Termiz shahri (109 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (103,7 %) yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (112,7 %), Angor (107,1 %), Muzrabot (107,0 %), Qumqo'rg'on (106,2 %), Jarqo'rg'on (105,9 %), Bandixon (104,5%), Qiziriq (104,4 %) va Sherobod tumanlarida (104,1 %) kuzatildi. Uzun (103,6 %), Sho'rchi va Boysun (103,1 %), Sariosiyo tumanlarida (102,9 %), Oltinsoy tumanida esa (95,6 %) aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 32 756,1 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 16 783,5 mlrd. so‘mni (103,8 %), chorvachilik mahsulotlari – 15 972,6 mlrd. so‘mni (103,5 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 67,1 % i - dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 24,5 % i -fermer xo‘jaliklariga, 8,4 % i - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Denov tumanida (36,5 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Termiz shahrida (93,3 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Angor tumanida (29,1 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Qiziriq tumanida (1,5 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Sherobod tumanida (53,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Boysun tumanida (0,3 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 16 783,5 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 51,2 % ni tashkil qildi.

## Don jami

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 753,2 ming t. don (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 68,8 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha don yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 356,5 ming t. kartoshka (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 89,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming t.**




**O'sish sur'ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1169,2 ming t. sabzavot (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 67,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha sabzavot yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 337,3 ming t. poliz (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,5 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 59,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatilmoqda.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



# Mevalar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 180,3 ming t. meva (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 57,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha meva yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 74,5 ming t. uzum (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 30,3 % ga kam) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 55,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 15 972,6 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 48,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 214,2 ming t. go‘sht (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,0 % ga ko‘p), 951,0 ming t. sut (1,4 % ga ko‘p), 589,1 mln. dona tuxum (8,7 % ga ko‘p), 2 792,0 t. jun (3,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 6 882,3 t. baliq (4,9 % ga ko‘p) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 214,2 ming t. go‘sht (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 951,0 ming t. sut (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,4 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 589,1 mln. dona tuxum (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 8,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 48,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 6 882,3 t. (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,9 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 65,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta‘kidlash lozim.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



# Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024-yilning 1- yanvar holatiga koʻra, yirik shoxli qoramollar bosh soni toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,5 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga, 91,6 % i dehqon va tomorqa xoʻjaliklariga, 1,9 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri kelishini qayd etib oʻtish lozim, shunga mos ravishda qoʻy va echkilarning umumiy sonidan 19,8 % i fermer xoʻjaliklariga, 77,1 % i dehqon va tomorqa xoʻjaliklariga, 3,1 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keladi, otlar umumiy sonidan 31,0 % i fermer xoʻjaliklariga, 65,4 % i dehqon va tomorqa xoʻjaliklariga, 3,6 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 15,4 % i fermer xoʻjaliklariga, 50,5 % i dehqon va tomorqa xoʻjaliklariga, 34,1 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keladi.

2024-yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 068,0 ming boshga yetdi.

2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 22,8 ming boshga (2,2 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024-yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 394,6 ming boshga yetdi.

2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni - 0,5 ming boshga (0,1 %) ko‘paydi.

## Sigirlar












2024-yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024-yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 582,3 ming boshga yetdi.

2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni - 46,2 ming boshga (1,8 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar














2024-yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 77,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024-yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 16 588 taga yetdi.

2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni - 408 taga (2,5 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024-yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 65,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2024-yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 292,4 mingtaga yetdi.

2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 164,7 mingtaga (3,2 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 50,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Surxondaryo viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi
• 76-225-65-78